

SITRUS OQQANOTINING ZARARI HAQIDA UMUMIY TAHLIL

Vahhobov U.Z - Termiz agrotexnologiyalari va innovatsion rivojlanish instituti magistranti

Akbutayev A.N - Termiz agrotexnologiyalari va innovatsion rivojlanish instituti katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada sitrus oqqanoti hashorotining zarari, ularning biologiyasi tur tarkibi, bioekologiyasi hamda morfologiyasi haqidagi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so`zlar : oqqanot, zararkunanda, qarshi kurashish, hashorot

Kirish. Oqqanot turlari, ularning tarqalishi, bioekologiyasi va rivojlanish xususiyatlari dunyo qishloq xo`jaligi sohasida etishtirilayotgan barcha ekinlarning 800 dan ortiq asosiy turli turdag'i xavfli zararkunanda hasharotlar zararlaydi va ularga qarshi har yili juda katta mablag' va ishchi kuchi sarflanadi. Ushbu zararkunandalarni chuqur o`rganish va ilmiy asosida tadqiq etib ular miqdorini boshqarish bo'yicha olimlarning ko'p yillik izlanishlari mavjud. Hozirda yer yuzida Aleyrodidae (oqqanotlar) oilasiga mansub hasharotlar Martin & Mound (1987) ma'lumotiga ko'ra 126 oilaga mansub 1156 tur mavjudligini qayd qilgan. Keyinchalik Aleyrodidae (Hemiptera) oilasiga mansub hasharotlarni o`rganish jarayonida Gregory A. Evans (2007) 166 oila, 3 ta kenja oilaga oid (Aleurodicinae, Aleyrodinae, Udamosellinae) 1551 tur mavjudligini ta'kidlaydi va turlarni bir biridan ajratishda ularning morfologik jihatni katta ahamiyatga egaligini ko'rsatgan.

Tadqiqot maqsadi. Issiqxonada sitrus oqqanotining umumiyligi rivojlanish biologiyasini o`rganish va umumiyligi monitoringini amalga oshirish.

Zarari. O'simliklarni zararlashda asosan lichinkalarining zarari katta bo'ladi. Oqqanotdan lichinkalaridan ajralib chiqqan ekskrimentlar o'simlik barglarini va ularning mevalarini ifloslantiradi. Keyinchalik esa ushbu joyda turli hil zambrug'lar rivojlanishiga olib keladi va o'simlik kasallanadi. Natijada o'simliklarda fotosintez jarayoni buzilib, ayrim hollarda o'simlik nobud bo'lishi kuzatiladi. Issiqxona oqqanoti tropik tur bo'lib, asosan himoyalangan maydonda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida ochiq maydonda ham tarqalib ituzumdoshlar va qovoqdoshlari oilasi vakillarini kuchli zararlaydi



1-rasm.Oqqanotning tuxumlari va nimfalik davri.

Oqqanotning o`simliklarga zararidan kelib chiqib quyidagi vazifalarni ishlab chiqdik:

-Issiqxonada sitrus oqqanotining umumiy rivojlanish biologiyasini o`rganish va umumiy monitoringini amalga oshirish;

- Issiqxona ekinlarining o`suv davrlarida sitrus oqqanotining zararini aniqlash va iqtisodiy zarar mezonini belgilash ;

- Oqqanotning tabiiy kushandalarini va parazitlarini samaradorligini o`rganish;

Tadqiqodning ob'ekti. Sitrus oqqanoti

Tadqiqodning predmeti. Sitrus oqqanotiga qarshi kurashishda yangi innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish

Tadqiqotning uslublari. Zararlangan o`simlikdan namunalar olishda N.A.Naimov(1937), V.E.Kazlov (1954) va boshqa metodlar orqali metodlar asosida olib boriladi.

Natijalar:Tajribada qo‘yilgan E. formosa turi issiqxona oqqanoti bilan o‘zaror parazit-xo‘jayin munosabatlарining shakllanishi tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotda oqqanot rivojlanishi uchun o‘rtacha havo harorati (+28oS) va nisbiy havo namligi (65%) o‘rganib borildi. Mavsumda asosan oqqanotning populyasiya miqdori ma’lum darajaga yetib, borganda tadqiqotlar olib borildi. Tajribada havo harorati may oyida o‘rtacha +26oS ni tashkil etdi. Bu davrda enkarziyaning ko‘payishi jadallahdi va bitta bargda o‘rtacha lichinka 12,6 dona, g‘umbagi 12,3 donani tashkil etdi. Yetuk zot enkarziyalar miqdori esa o‘rtacha 15,4 donani ko‘rsatdi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. “O‘zbekiston Respublikasida meva sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 y. 30 mart. 1 b.
2. Mirziyoev SH.M. 2017 yil 9 dekabrdagi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan agrar soha vakillarining respublikamiz mirishkor dehqonlari, fermerlari va soha xodimlariga murojaati // Q/x jurnali-Toshkent.№1.2018. B. 4-6.
3. Adashkevich B.P., SHiyko E. Razvedenie i xranenie entomofagov.-Tashkent: Uzbekistan, 1983.-S. 47-62.